

QONUNCHILIK HUIJATLARI, TOPSHIRIQLAR HAMDA HUKUMAT QARORLARINING IJROSI YUZASIDAN “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR

“O‘zagroinspeksiya” tomonidan ijro intizomiga rioya qilish bo‘yicha ishlar qonunchilik hujjatlari talablari doirasida davom ettirilmoqda va belgilab berilgan chora-tadbirlarning samaradorlik va natijadorligiga katta e‘tibor berilmoqda.

Xususan, 2026 yilning yanvar-mart oylarida **180** ta hujjat, shundan, O‘zbekiston Respublikasining **19** ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **22** ta farmon, farmoyishlari va **69** ta qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining **70** ta qarorlari ro‘yxatga olinib, ijroga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 10 fevraldagi **PF-6166**-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda 31 maydagi **PQ-5132**-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha **har haftaning dushanba va juma kuni** muhokama qilinib, o‘tkazilayotgan apparat yig‘ilishlari kengaytirilgan yig‘ilish hamda rayyosat yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirildi va har bir topshiriq ijrosi ta‘minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

“**Ijro.gov.uz**” tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar hamda Inspeksiyaga kelib tushgan qonunchilik hujjatlari ijrosini muddatidan oldin ta‘minlash maqsadida har oyda **Kalendar-grafik jadvallari** ishlab chiqilmoqda va shu asosida ishlar kunlik tashkil etilib, natijasi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga** axborot kiritilib kelinmoqda.

Tizimda O‘zbekiston Respublikasining **qonunlari**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **Farmon, qaror, farmoyishlari**, Prezident Administratsiyasi rahbarining **topshiriqlari** hamda Hukumatning **qaror va farmoyishlari** ijrosi qat‘iy nazoratga olingan.

Joriy yilning **yanvar-mart oylarida** Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali **13** ta Prezident hujjatlari bo‘yicha kelib tushgan **49** ta, shu jumladan, mart oyida **4** ta hujjat bo‘yicha **9** ta topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi**.

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya” ning ish yurituvda bo‘lgan **yanvar-mart oylari** muddatli **122** ta qonunchilik topshiriqlari, shu jumladan, mart oyida **57** ta topshiriqning ijrosi yuzasidan

axborotlar tegishli davlat organlariga kiritilib, belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta'minlandi.

2026-yil 31-mart holatiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali **47** ta Prezident hujjatlari ijrosi yuzasidan **124** ta topshiriqlari bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Shuningdek, **yanvar-mart oylarida** Inspeksiyaga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali Vazirlar Mahkamasi **8** ta hujjatlari bo'yicha kelib tushgan **34** ta, shu jumladan, mart oyida **3** ta hujjat bo'yicha **24** ta topshiriqlar yuzasidan **nazorat rejalari ishlab chiqildi** va **tegishli ijrochilarga yo'naltirildi**.

Shu bilan birga, "Ijro.gov.uz" tizimida "O'zagroinspeksiya" ning ish yurituvida bo'lgan **yanvar-mart oylari** muddatli Vazirlar Mahkamasining **56** ta topshiriqlari, shu jumladan, mart oyida **45** ta topshiriq ijrosi yuzasidan ishlar tashkil qilinib, belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta'minlandi.

2026-yil 31-mart holatiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali **11** ta Vazirlar Mahkamasining hujjatlari ijrosi yuzasidan **68** ta topshiriqlari bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2026 yil 1 апрель holatiga Prezident Administrasiyasi va Hukumat komissiyasining **hujjatlari bo'yicha muddati o'tgan topshiriqlar mavjud emas**.

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2026 yil 25 martda **aprel oyida "Ijro.gov.uz"** tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik "**Kalendar-grafik**" va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha "**Yo'l xaritasi**" Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyesi